

O'ZBEK OILALARIDA EMOTSIONAL ALIENATSIYANING PSIXOSOTSIAL REPREZENTATSIYALARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Oila shaxsning emotsional rivojlanishi, psixologik farovonligi va ijtimoiy identifikatsiyasini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi hamda oilaviy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar emotsional alienatsiya fenomenining shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalari empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Respondentlarning emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlari, uning psixologik mazmuni, asosiy oqibatlari va uni kamaytirish usullari psixosemantik yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari respondentlar emotsional alienatsiyani, avvalo, o'zini keraksiz his qilish, emotsional yaqinlikning yo'qolishi va psixologik iztirob bilan bog'lashlarini ko'rsatdi. Shuningdek, emotsional alienatsiyani kamaytirishda sport, san'at, rekreatsioon faoliyat va oilaviy muloqot muhim psixologik resurs sifatida baholanishi aniqlandi. Olingan natijalar emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini tushuntirish, uning diagnostik indikatorlarini takomillashtirish hamda oilalarda emotsional yaqinlikni mustahkamlashga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: emotsional alienatsiya, psixosotsial reprezentatsiyalar, ijtimoiy tasavvurlar, psixosemantika, oilaviy munosabatlar, emotsional yaqinlik, psixologik farovonlik, ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, psixologik diagnostika.

ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЕ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ АЛИЕНАЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация: Семья является важнейшим социальным институтом, обеспечивающим эмоциональное развитие личности, психологическое благополучие и социальную идентичность. Современные социально-экономические трансформации, урбанизация, трудовая миграция, широкое распространение цифровых коммуникаций и изменение системы семейных ценностей оказывают существенное влияние на формирование феномена эмоциональной аalienации. В статье представлены результаты эмпирического исследования психосоциальных репрезентаций эмоциональной аalienации в узбекских семьях. На основе психосемантического подхода проанализированы социальные представления респондентов об эмоциональной аalienации, её психологическое содержание, наиболее распространённые последствия и способы преодоления. Полученные результаты свидетельствуют о том, что большинство респондентов связывают эмоциональную аalienацию с ощущением собственной ненужности, утратой эмоциональной близости и психологическим дистрессом. Кроме того, установлено, что спорт, искусство, рекреационная деятельность и внутрисемейное общение рассматриваются как наиболее эффективные психологические ресурсы профилактики эмоциональной аalienации. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования диагностики эмоциональной аalienации и разработки психопрофилактических и психокоррекционных программ, направленных на укрепление эмоциональной близости в семье.

Ключевые слова: эмоциональная аalienация, психосоциальные репрезентации, социальные представления, психосемантика, семейные отношения, эмоциональная близость, психологическое благополучие, социальная психология, психология семьи, психологическая диагностика.

PSYCHOSOCIAL REPRESENTATIONS OF EMOTIONAL ALIENATION IN UZBEK FAMILIES

Abstract: The family is a fundamental social institution that ensures emotional development, psychological well-being, and social identity. Contemporary socio-economic transformations, urbanization, labor migration, the expansion of digital communication technologies, and changes in family value systems have significantly influenced the emergence and development of emotional alienation. This article presents an empirical study of the psychosocial representations of emotional alienation in Uzbek families. Using a psychosemantic approach, the study examines respondents' social representations of emotional alienation, its psychological meaning, perceived consequences, and effective coping strategies. The findings indicate that respondents primarily associate emotional alienation with feelings of being unnecessary, the loss of emotional closeness, and psychological distress. Furthermore, sport, artistic activities, recreation, and family communication were identified as the most effective psychological resources for reducing emotional alienation. The results contribute to a better theoretical understanding of psychosocial representations of emotional alienation and provide a scientific basis for improving psychological assessment as well as developing preventive and corrective programs aimed at strengthening emotional closeness within families.

Keywords: emotional alienation, psychosocial representations, social representations, psychosemantics, family relationships, emotional closeness, psychological well-being, social psychology, family psychology, psychological assessment.

Kirish. Jahondagi globallashuv davrida zamonaviy psixologiya fanida o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini empirik jihatdan o'rganishda yagona universal metodologik yondashuv mavjud emas. Buning asosiy sababi emotsional alienatsiyaning ko'p qirrali, dinamik va murakkab ijtimoiy-psixologik konstrukt ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur fenomen shaxsning ichki emotsional kechinmalari bilan bir qatorda, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar, kommunikativ amaliyotlar va jamiyatda shakllangan umumiy tasavvurlar ta'sirida vujudga keladi. Shu bois emotsional alienatsiyani faqat individual psixologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy ongda shakllangan psixosotsial reprezentatsiyalar tizimi sifatida tadqiq etish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi [1].

Ijtimoiy psixologiyada emotsional alienatsiyani o'rganishga doir mavjud metodologik yondashuvlarni shartli ravishda ikki asosiy paradigmaga ajratish mumkin. Birinchi paradigma individual-psixologik yondashuv bo'lib, unda emotsional alienatsiya shaxsning subyektiv emotsional holati, ichki ziddiyatlari, yolg'izlik hissi, o'zini qadrlash darajasi va psixologik moslashuv xususiyatlari orqali talqin etiladi. Mazkur yondashuv fenomenning intrapsixik mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, uning oilaviy va ijtimoiy kontekstda shakllanuvchi mazmunini to'liq ifodalash imkonini bermaydi. Chunki o'zbek oilalarida emotsional alienatsiya nafaqat shaxsning individual kechinmalari, balki oilaviy qadriyatlar, avlodlararo munosabatlar, qarindoshlik aloqalari va milliy-madaniy me'yorlar bilan ham uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ikkinchi paradigma psixosotsial yoki ijtimoiy reprezentatsiyalar yondashuvi bo'lib, unda

emotsional alienatsiya shaxslar tomonidan kundalik hayot tajribasi asosida shakllantiriladigan ijtimoiy bilimlar, qadriyatlar, stereotiplar, emotsional baholar va semantik ma'nolar tizimi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson emotsional alienatsiyani bevosita emas, balki jamiyatda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar orqali anglaydi, baholaydi va unga munosabat bildiradi. Shuning uchun emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini o'rganish fenomenning ijtimoiy ongdagi mazmunini, markaziy va periferik elementlarini hamda oilaviy munosabatlar bilan bog'liq psixologik interpretatsiyalarini aniqlash imkonini beradi [2].

Bizningcha, aynan integrativ psixosotsial yondashuv o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyani tadqiq etishda eng maqbul metodologik asos hisoblanadi. Chunki o'zbek oilasi nafaqat shaxsning emotsional ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy institut, balki milliy qadriyatlar, oilaviy birdamlik, o'zaro mas'uliyat va qarindoshlik munosabatlarini uzatuvchi murakkab psixologik tizimdir. Mazkur tizimdagi emotsional alienatsiya faqat hissiy yaqinlikning susayishi bilan emas, balki oilaviy identifikatsiyaning zaiflashuvi, o'zaro ishonchning kamayishi, kommunikativ uzilishlar, emotsional qo'llab-quvvatlashning pasayishi hamda zamonaviy sotsiomadaniy transformatsiyalar ta'sirida shakllanayotgan yangi oilaviy reprezentatsiyalar bilan ham tavsiflanadi.

O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini tadqiq etish respondentlarning mazkur fenomen haqidagi ijtimoiy tasavvurlarini, uni qanday mazmunda talqin qilishini, qanday emotsional va kognitiv komponentlar bilan bog'lashini hamda oilaviy hayot tajribasi asosida shakllangan psixologik interpretatsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bunday metodologik yondashuv emotsional alienatsiyaning nafaqat individual-psixologik, balki oilaviy, madaniy va ijtimoiy determinantlarini kompleks ravishda ochib berishga xizmat qiladi hamda o'zbek oilalarining zamonaviy psixologik arxitektonikasini chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Metodologik nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini uch darajali tizim asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv respondentlarning mazkur fenomen haqidagi tasavvurlari qanday psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishini kompleks ravishda tushuntirish imkonini beradi. Chunki emotsional alienatsiya to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar faqat individual tajribaga emas, balki oilaviy hayot, madaniy qadriyatlar va jamiyatdagi kommunikativ amaliyotlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi [3].

Birinchi daraja mikropsixologik reprezentatsiyalar bo'lib, ular shaxsning emotsional tajribasi va individual psixologik xususiyatlari negizida shakllanadi. Mazkur darajaga emotsional intellekt, bog'lanish uslubi (attachment), empatik qobiliyat, refleksivlik, affektiv o'zini boshqarish, psixologik farovonlik hamda o'zini identifikatsiyalash jarayonlari kiradi. Aynan shu omillar insonning emotsional alienatsiyani qanday idrok etishi, unga qanday ma'no berishi va uni qanday emotsional baholashi bilan bog'liq. Natijada respondentlarning ijtimoiy ongida emotsional alienatsiya shaxsiy iztirob, keraksizlik hissi yoki emotsional bo'shliq sifatida reprezentatsiyalanadi.

Ikkinchi daraja mezopsixologik reprezentatsiyalar bo'lib, ular oilaviy tizim doirasida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarni ifodalaydi. Bu darajada er-xotin munosabatlari, ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional yaqinlik, oilaviy rollarning taqsimlanishi, o'zaro ishonch, psixologik qo'llab-quvvatlash, kommunikativ madaniyat hamda nizolarni hal etish uslublari emotsional alienatsiya haqidagi tasavvurlarning mazmunini belgilaydi. Shu sababli bir oilada emotsional alienatsiya «mehrning kamayishi» yoki «bir-birini tushunmaslik» sifatida talqin qilinsa, boshqa oilada u «muloqotning uzilishi» yoki «ruhiy yolg'izlik» bilan bog'lanishi mumkin. Demak, oilaviy tizim emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini shakllantiruvchi eng muhim sotsial makon hisoblanadi.

Uchinchi daraja makropsixologik representatsiyalar bo'lib, ular jamiyatning sotsiomadaniy muhiti ta'sirida yuzaga keladi. Urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, raqamli kommunikatsiyaning kengayishi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, iqtisodiy beqarorlik, qadriyatlar transformatsiyasi hamda demografik o'zgarishlar emotsional alienatsiya haqidagi jamoaviy tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Natijada jamiyatda emotsional yaqinlik, oilaviy birdamlik yoki begonalashuv haqidagi qarashlar ham zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar ta'sirida yangicha mazmun kasb etadi [4].

Mazkur uch darajali metodologik model emotsional alienatsiyaning psixosotsial representatsiyalarini alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ijtimoiy representatsiyalar nazariyasiga ko'ra, shaxsning kundalik ongida shakllanadigan har qanday tasavvur individual tajriba va jamoaviy bilimlarning integratsiyasi mahsulidir. Shu bois emotsional alienatsiya haqidagi representatsiyalar ham shaxsiy emotsional kechinmalar, oilaviy tajriba va jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy qadriyatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.


O'zbek oilalari misolida emotsional alienatsiyaning psixosotsial representatsiyalarini tahlil qilishda milliy-etnopsixologik omillar alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. O'zbek jamiyatida kollektivism, oilaparvarlik, avlodlararo birdamlik, qarindoshlik rishtalari, kattalarga hurmat va oilaviy sha'nni asrash kabi qadriyatlar emotsional munosabatlarning mazmunini belgilovchi asosiy sotsiomadaniy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, hissiyotlarni ochiq ifodalashning cheklanganligi, gender rollarining an'anaviy talqini, oilaviy muammolarni tashqi muhokamaga olib chiqmaslik kabi me'yorlar respondentlarning emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada emotsional begonalashuv ko'pincha ochiq konflikt sifatida emas, balki «sabr qilish», «ichga yutish», «masofa saqlash» yoki «bir tom ostida yashab, ruhiy uzoqlashish» kabi ijtimoiy-ma'naviy mazmunlar orqali representatsiyalanadi.

Yana bir muhim metodologik jihat shundaki, psixosotsial representatsiyalar statik emas, balki dinamik tabiatga ega. Ular jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyalar, oilaviy hayot siklining bosqichlari, yangi kommunikativ texnologiyalar hamda avlodlar almashinuvi ta'sirida doimiy ravishda yangilanib boradi. Nikohning dastlabki bosqichida emotsional alienatsiya haqidagi tasavvurlar ko'proq o'zaro moslashuv va emotsional yaqinlik bilan bog'liq bo'lsa, farzandlar ulg'aygan davrda avlodlararo kommunikatsiya va oilaviy rollar transformatsiyasi bilan, keksalik bosqichida esa yolg'izlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va emotsional qo'llab-quvvatlash ehtiyojining ortishi bilan bog'liq holda yangi mazmun kasb etadi [5]. Shu sababli o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial representatsiyalarini oilaviy hayot sikli, milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar bilan integratsiyada o'rganish mazkur fenomenning psixologik mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Diagrammada respondentlarning emotsional alienatsiyani kamaytirishda qaysi vositalarni samaraliroq deb hisoblashlari aks ettirilgan. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 69 foizi emotsional alienatsiyani kamaytirishda sport, raqs va musiqa eng samarali vosita ekanligini bildirgan. 50 foizi sayr qilish, 48 foizi ko'ngilochar tadbirlar, 33 foizi esa rekreatsion faoliyatni samarali omil sifatida baholagan. Olingan natijalar respondentlar emotsional alienatsiyani kamaytirishda faol ijtimoiy ishtirok, ijobiy emotsional tajriba va birgalikdagi faoliyatni eng muhim psixologik resurs sifatida qabul qilishlarini ko'rsatadi.

Eng yuqori ko'rsatkich (69%) sport, raqs va musiqa faoliyatiga to'g'ri kelgani respondentlarning emotsional begonalashuvni bartaraf etishda jismoniy faollik hamda san'atning psixoterapevtik imkoniyatlarini intuitiv ravishda anglashlarini ko'rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan, sport bilan shug'ullanish organizmda endorfin, serotonin va dopamin kabi neyromediatorlarning faollashishiga xizmat qilib, stressni kamaytiradi, emotsional zo'riqishni pasaytiradi va subyektiv farovonlikni

o'shiradi. Raqs va musiqa esa emotsiyalarni konstruktiv ifodalash, ichki kechinmalarni regulyatsiya qilish hamda boshqalar bilan emotsional rezonans hosil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, guruh shaklida amalga oshiriladigan sport va ijodiy faoliyatlar ijtimoiy mansublik hissini kuchaytirib, emotsional alienatsiyaning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan yolg'izlik va begonalashuv hissini kamaytiradi.




1-rasm. Emotsional alienatsiyani kamaytirishning samarali vositalari

Respondentlarning 50 foizi sayr qilishni emotsional alienatsiyani kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholagan. Sayr qilish insonning psixofiziologik tiklanishiga xizmat qiluvchi rekreatsion faoliyat bo'lib, tabiiy muhit bilan bevosita muloqot qilish stress gormonlari miqdorini kamaytiradi, diqqat resurslarini tiklaydi va emotsional barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, sayr qilish ko'pincha yaqin insonlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan faoliyat bo'lgani sababli oilaviy muloqotni faollashtiradi, samimiy suhbatlar uchun qulay psixologik muhit yaratadi va shaxslararo yaqinlikni mustahkamlaydi.

48 foiz respondent ko'ngilochar tadbirlarni emotsional alienatsiyani kamaytiruvchi omil sifatida baholagan. Ushbu natija respondentlar emotsional farovonlikni ta'minlashda ijobiy emotsional tajribalar va birgalikdagi ijtimoiy faoliyatning ahamiyatini yuqori baholashlarini ko'rsatadi. Psixologik jihatdan ko'ngilochar tadbirlar oila a'zolari va yaqin insonlar o'rtasida ijobiy affektiv fonni shakllantiradi, kommunikativ faollikni oshiradi hamda o'zaro emotsional almashinuvni kuchaytiradi. Bunday faoliyatlar shaxsning ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga, emotsional qo'llab-quvvatlashni his etishiga va ijobiy ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlashiga yordam beradi. Respondentlarning 33 foizi rekreatsiyani samarali vosita sifatida ko'rsatgan. Mazkur ko'rsatkich boshqa omillarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, rekreatsiyaning psixologik salomatlikni tiklashdagi ahamiyatini inkor etmaydi. Ehtimol, respondentlarning bir qismi rekreatsiya tushunchasini torroq ma'noda dam olish maskanlari yoki sayohat bilan bog'lagan bo'lishi mumkin. Holbuki, zamonaviy psixologiyada rekreatsiya shaxsning psixik resurslarini tiklash, emotsional charchoqni kamaytirish, stressni boshqarish va psixologik farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi keng ko'lamli faoliyatlar tizimi sifatida qaraladi. Mazkur natija rekreatsion madaniyat va uning psixologik ahamiyati bo'yicha aholining xabardorligini oshirish zarurligini ham ko'rsatadi.

Psixosotsial reprezentatsiyalar nuqtai nazaridan mazkur natijalar respondentlarning emotsional alienatsiyani kamaytirish haqidagi tasavvurlari asosan faol harakat, ijodiy faoliyat, ijtimoiy

muloqot va tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sir atrofida shakllanganligini ko'rsatadi. Respondentlar psixologik yordamni faqat mutaxassis bilan ishlash jarayoni sifatida emas, balki kundalik hayotdagi sog'lom turmush tarzi, emotsional almashinuv va ijtimoiy faollik orqali ham amalga oshiriladigan jarayon sifatida idrok etmoqdalar. Bu esa emotsional alienatsiyani kamaytirish haqidagi ijtimoiy tasavvurlar ko'proq profilaktik va resursga yo'naltirilgan mazmunga ega ekanligini anglatadi.



2-rasm. Emotsional alienatsiyaning oqibatlari bo'yicha tushunchalar kategoriyasi

Mazkur diagrammada respondentlarning emotsional alienatsiyaning eng ko'p uchraydigan oqibatlari haqidagi ijtimoiy tasavvurlari aks ettirilgan. Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 70 foizi emotsional alienatsiyaning asosiy oqibati sifatida depressiyani, 12 foizi mobil addiksiyani, 10 foizi suitsidal fikrlarni, 5 foizi alkogolizm va giyohvandlikni, 3 foizi esa uyqu buzilishini qayd etgan. Respondentlar ongida emotsional alienatsiya, avvalo, insonning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi psixologik xavf omili sifatida reprezentatsiyalanganligini ko'rsatadi. Diagrammadagi taqsimot respondentlarning emotsional begonalashuvni oddiy hissiy holat emas, balki shaxsning psixologik moslashuvi va emotsional barqarorligini izdan chiqaruvchi murakkab fenomen sifatida baholashlarini tasdiqlaydi.

Eng yuqori ko'rsatkich (70 %) depressiya hissasiga to'g'ri kelganligi respondentlarning emotsional alienatsiya bilan bog'liq eng asosiy psixologik oqibat sifatida aynan depressiv holatlarni ko'rishini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan, emotsional alienatsiya uzoq davom etganda shaxsda umidsizlik, hayotdan qoniqmaslik, motivatsiyaning pasayishi, ijobiy emotsiyalarni boshdan kechirish qobiliyatining susayishi va ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda emotsional yaqinlikning yo'qolishi, o'zaro qo'llab-quvvatlashning kamayishi va tushunilmaslik hissi depressiv simptomlarning rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bois respondentlarning aksariyati depressiyani emotsional alienatsiyaning eng tipik va eng xavfli oqibati sifatida baholagan.

Respondentlarning 12 foizi emotsional alienatsiyaning oqibati sifatida mobil addiksiyani ko'rsatgan. Ushbu natija zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida emotsional ehtiyojlarning virtual kommunikatsiya orqali kompensatsiya qilinishi haqidagi tasavvurlar mavjudligini ko'rsatadi. Emotsional jihatdan yaqin munosabatlar yetishmaganda ayrim insonlar mobil telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa raqamli platformalardan psixologik qoniqish manbai sifatida foydalanishga

moyil bo'ladilar. Natijada real shaxslararo munosabatlar o'rnini virtual muloqot egallab, emotsional begonalashuv yanada chuqurlashishi mumkin. Bu holat respondentlarning emotsional alienatsiyani zamonaviy texnologik muhit bilan bog'liq xavf omillaridan biri sifatida ham idrok etayotganligini ko'rsatadi. Diagrammaga ko'ra, respondentlarning 10 foizi emotsional alienatsiya suitsidal fikrlarni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etgan. Ushbu natija respondentlarning muayyan qismi emotsional begonalashuvning og'ir psixologik oqibatlarini anglatayotganidan dalolat beradi. Psixologik tadqiqotlarda uzoq muddat davom etuvchi yolg'izlik, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional qo'llab-quvvatlashning yo'qligi suitsidal ideatsiyaning muhim psixologik prediktorlari sifatida e'tirof etiladi. Biroq mazkur natija respondentlarning ijtimoiy tasavvurlarini aks ettiradi va emotsional alienatsiyaga duch kelgan har bir shaxsda suitsidal fikrlar shakllanadi, degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, bu javob respondentlarning emotsional begonalashuvning og'ir ruhiy oqibatlari haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

Respondentlarning 5 foizi emotsional alienatsiyaning oqibati sifatida alkogolizm va giyohvandlikni ko'rsatgan. Mazkur natija ayrim respondentlar emotsional iztirobni kamaytirish uchun zararli kompensator strategiyalardan foydalanish ehtimolini tan olishini anglatadi. Emotsional boshqaruv strategiyalarining zaifligi ba'zan psixoaktiv moddalar orqali vaqtinchalik yengillik izlashga olib kelishi mumkin. Biroq ushbu javobning nisbatan past ulushi respondentlar ongida emotsional alienatsiya ko'proq ruhiy-emotsional muammo sifatida, kamroq esa deviant xulq-atvor omili sifatida reprezentatsiyalanganini ko'rsatadi.

Eng past ko'rsatkich (3 %) uyqu buzilishiga to'g'ri kelgan. Psixologik va tibbiy tadqiqotlarda emotsional stress hamda depressiv holatlar uyqu sifatining pasayishi bilan bog'liqligi ko'p marotaba isbotlangan bo'lsa-da, respondentlarning aksariyati ushbu simptomni emotsional alienatsiyaning asosiy oqibatlaridan biri sifatida baholamagan. Bu holat respondentlar emotsional alienatsiyaning bilvosita psixofiziologik oqibatlariga nisbatan kamroq xabardor ekanligini ko'rsatishi mumkin. Psixosotsial reprezentatsiyalar nazariyasi nuqtai nazaridan mazkur natijalar emotsional alienatsiyaning respondentlar ongidagi markaziy semantik yadrosi «depressiya» tushunchasi bilan chambarchas bog'langanini ko'rsatadi. Mobil addiksiya va suitsidal fikrlar ushbu yadroni to'ldiruvchi ikkilamchi reprezentatsiyalar sifatida namoyon bo'lsa, alkogolizm, giyohvandlik va uyqu buzilishi periferik elementlar sifatida shakllangan. Bu esa respondentlarning emotsional alienatsiyani, avvalo, shaxsning ruhiy holati va emotsional farovonligiga tahdid soluvchi fenomen sifatida idrok etayotganini anglatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari emotsional alienatsiya respondentlar ongida, avvalo, salbiy psixologik mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida reprezentatsiyalanganligini ko'rsatdi. Psixosemantik tahlil emotsional alienatsiyaning kundalik ongidagi mazmuni asosan insonning o'zini keraksiz his qilishi, psixologik iztirob, emotsional begonalashuv, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda shaxslararo yaqinlikning susayishi bilan bog'liq ekanligini aniqladi. Bu esa mazkur fenomenning psixologik mazmuni respondentlar tomonidan individual kechinma sifatida emas, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlar sifatining pasayishi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida anglanayotganligini ko'rsatadi.

Empirik natijalar respondentlarning aksariyati emotsional alienatsiyani ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo sifatida baholashini tasdiqladi. Mazkur holat emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlar individual psixologik omillar bilan bir qatorda oilaviy kommunikatsiya, emotsional yaqinlik, o'zaro ishonch, ijtimoiy integratsiya va zamonaviy sotsiomadaniy transformatsiyalar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, respondentlarning katta qismi emotsional alienatsiyani insonning o'zini keraksiz his qilishi bilan bog'lagani ushbu fenomenning psixosotsial reprezentatsiyalarida mansublik ehtiyojining qondirilmasligi va emotsional qo'llab-

quvvatlashning yetishmasligi markaziy semantik yadro ekanligini namoyon etdi.

Tadqiqot davomida emotsional alienatsiyaning eng ko'p uchraydigan oqibati sifatida depressiya qayd etilgani respondentlar mazkur fenomenni ruhiy salomatlik uchun jiddiy xavf omili sifatida qabul qilishlarini ko'rsatdi. Shuningdek, mobil addiksiya, suitsidal fikrlar, alkogolizm va uyqu buzilishi kabi holatlar ham emotsional alienatsiyaning salbiy oqibatlari sifatida e'tirof etildi. Bu esa respondentlar ongida emotsional alienatsiya nafaqat hissiy noqulaylik, balki shaxsning psixologik moslashuvi va hayot sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida reprezentatsiyalanganidan dalolat beradi. Respondentlarning emotsional alienatsiyani kamaytirish usullari haqidagi qarashlari ham psixosotsial jihatdan muhim xulosalarni berdi. Ular sport, musiqa, raqs, sayr qilish va ko'ngilochar tadbirlarni emotsional begonalashuvni bartaraf etishning eng samarali vositalari sifatida baholadilar. Mazkur natijalar respondentlarning emotsional salomatlikni tiklashni faol ijtimoiy muloqot, jismoniy faollik, rekreatsion faoliyat va ijobiy emotsional tajribalar bilan bog'lashlarini ko'rsatadi.

Amaliy nuqtai nazardan tadqiqot natijalari emotsional alienatsiyani kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday dasturlarda oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish, emotsional savodxonlikni oshirish, empatik muloqotni shakllantirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda sport, san'at va rekreatsion faoliyatlarni oilaviy hayotgakeng joriy etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini empirik jihatdan tavsiflash orqali ushbu fenomenning psixosemantik mazmuni, ijtimoiy ongda konseptual modeli va psixologik determinantlarini aniqlashtirdi. Olingan natijalar emotsional alienatsiyani o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini boyitish bilan birga, o'zbek oilalarida emotsional yaqinlikni mustahkamlash, psixologik farovonlikni oshirish hamda oilaviy munosabatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Московичи С. Социальные представления: исторический взгляд // Психологический журнал. – 1995. – Т. 16. – № 2. – С. 3–18.
2. Abric J.-C. Pratiques sociales et représentations. – Paris : Presses Universitaires de France, 1994. – 251 p.
3. Jodelet D. Social Representations and the Social Sciences // Social Representations: Explorations in Social Psychology / Ed. by G. Duveen. – New York : New York University Press, 2008. – P. 1–17.
4. Weiss R.S. Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation. – Cambridge, MA : MIT Press, 1973. – 236 p.
5. Петренко В.Ф. Основы психосемантики. – 3-е изд. – Москва : Издательство Московского университета, 2010. – 480 с.